



BUXORO  
DAVLAT  
UNIVERSITETI  
1930

# USLUBIY KO'RSATMA

ILMIY TADQIQOT ISHI VA MAGISTRLIK  
DISSERTATSIYASINI TAYYORLASH BO'YICHA



5A230102 – “IQTISODIYOT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)”  
YO'NALISHI MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI UCHUN

**A.ABDULLOEV D.YAVMUTOV M.TAIROVA Z.NUROV S.DAVLATOV**



**Buxoro Davlat Universiteti, «Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti, i.f.n., Yavmutov D.Sh., PhD, dotsent Abdulloev A.J., i.f.n., dotsent Tairova M.M., PhD. Nurov Z.S., Davlatov S.S. 5A230102– “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” yo'nalishi magistratura mutaxassisliklari uchun “Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiya tayyorlash” bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2021 yil. 40 bet.**

**Annotatsiya:** Uslubiy ko'rsatmada umumiy qoidalar, Ilmiy tadqiqot ishini olib borish, magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash, uning maqsadi, mazmuni, tarkibi, ilmiy rahbar, opponentalar, rasmiylashtirish, hamda magistrning dissertatsiya ishini himoyaga tayyorlash va baholash tartibi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar ko'rsatilgan.

**TAQRIZCHILAR:**

- 1. Raxmatullaeva F.M., BuxDU, “IQTISODIYOT” kafedrası dotsenti, i.f.n.**
- 2. Xasanova G.J., BuxMTI, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.**

**Uslubiy ko'rsatma:**

**Buxoro Davlat Universiteti “IQTISODIYOT” kafedrası yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan(5-sonli bayonnoma, 18-fevral, 2021 yil).**



## 1. Umumiy qoidalar

Magistratura ta'lim tizimida magistrantning ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, magistrant magistratura mutaxassisligida o'tiladigan mutaxassislik fanlar asosini tashkil etuvchi nazariy va tajriba tadqiqotlari usullari o'rganib, magistrlik dissertatsiyasiga tanlab olingan mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar bilan tanishadi va mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiya ishini olib boradi.

Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash faoliyati oliy ta'lim muassasasi, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, akademiya va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, korxon va tashkilotlarning tadqiqot bo'limlarida o'tkaziladi. U ikki tomonlama va boshqacha kelishuvlar asosida xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari, korxon va tashkilotlarida o'tkazilishi ham mumkin.

Mazkur tartib magistrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son qarori, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalar va tarmoqlarining iqtisodiy yanada kengaytirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 190-son va 2015 yil 2 martdagi Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 36-son qarori bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, magistrlar tayyorlashga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqilgan va u iqtisodiyot bo'yicha magistratura mutaxassisliklarida magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish tartibini belgilaydi.

### 1.1. Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash faoliyati tavsifi quyidagilardan iborat:

- Mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- O'zbekistonning mavjud turistik salohiyatidan foydalanib yangi turistik paketlar ishlab chiqish;
- Namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlash;
- Ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- O'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarini ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;
- Ilmiy seminar, konferensiya va ko'rgazmalarda ishtirok etish;
- Ilmiy mavzuga mos jumalarga tezis, maqola va monografiyalar tayyorlash.

### 1.2. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy talablar

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistr bakalavr darajasidan keyingi oliy ta'lim bosqichi hisoblanadi. Xususan, magistr akademik darajasiga ega bo'lgan shaxs sifatida ilmiy-tadqiqot uslubiyoti, ilmiy axborotlarni qayta ishlash va saqlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni biladigan, chuqur bilimli, iqtidorli, raqobatbardosh darajadagi kasbiy ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassisdir.

Magistrlik dissertatsiyasi – magistrantni magistraturada o'qish davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy tadqiqot ishi, uni bajarishga qo'llagan umumiy tadqiqot metodlari, empirik va nazariy tadqiqot usullarini (abstraktlash, tahlil va sintez, induktivsiya va deduktivsiya) bilish va ijod axborotlashgan jarayonlar mahsuli, tadqiqot jarayonidagi o'lchovlar, jarayon va ob'ektlarning andozalash va hisoblash tajribasidir. Ilmiy tadqiqotning yangi metodlari, mantiq qonunlari va qoidalarini qo'llash, dalil keltirish va isbotlash qoidalari, mavzu tanlash va rejani tuzish, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va daliliy



**1.4. "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" magistratura mutaxassisligi uchun ilmiy tadqiqot ishi va dissertatsiya tayyorlash bo'yicha magistrantlarga semesterlar bo'yicha vazifalar**

<b>1-bosqich 1 semestr dagi vazifalar</b>	
Dissertatsiyaning mundarijasini tuzish;	
Annotatsiya (tayyorlanadigan dissertatsiyaning kengaytirilgan ish rejasi, 4 betgacha);	
Adabiyotlarro'yxatini ishlab chiqish (200 ta kitob, 200 ta sayt);	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqolatayyorlash, 1 ta saxonijda;	
Ilmiy ishlar konspekti (50 ta ilmiy asar);	
Universitet tanlovi uchun bir biznes - g'oya.	
<b>1-bosqich 2 semestr dagi vazifalar</b>	
Adabiyotlarro'yxatini takomillashtirish;	
Dissertatsiyaning birinchi bobini tayyorlash;	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqolachopetish;	
Grant loyihasi to'liqlashlab chiqiladi.	
<b>Yozgi ta'tildagi vazifalar</b>	
Dissertatsiya tematikasi bo'yicha xorij tajribasini tahlil yetish;	
Dissertatsiyaning ikkinchi bobini tayyorlash.	
<b>2-bosqich 1 semestr dagi vazifalar</b>	
Dissertatsiya yakunlanib, kirish va xulosadan qolgan qismichiqariladi;	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqolachopetish;	
Grant loyihasini tadbiq qilish;	
Universitet uchun bir biznes - g'oyaberish <sup>1</sup> ;	
Patent yoki boshqa tasdiqlovchi hujjat olishga harakat qilish <sup>2</sup> .	
<b>2-bosqich 2 semestr dagi vazifalar</b>	

ashyolarni va jarayonlarni o'rganish orqali o'z oldiga kafedra va ilmiy rahbar tomonidan qo'yilgan ilmiy tadqiqot ishining natijasi hisoblanadi. Dissertatsiya mavzusi fan-texnika taraqqiyotida, iqtisodiyot, ishlab chiqarishga, ijtimoiy sohalarida ilg'or va dolzarb masalalarga bag'ishlangan muayyan bir vazifaning ilmiy asoslangan yechimini topishga, tavsiyalar ishlab chiqishga, statistik ma'lumotlar tahliliga qaratilgan va natijaviy yechimiga ega bo'lishi zarur. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi iste'molchining buyurtmasi bo'yicha taklif qilinishi, kafedrada olib borilayotgan dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlarining ma'lum bir mavzusidan iborat bo'lishi mumkin.

**1.3. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonida magistrant vazifalari:**

- ilmiy izlanishlar olib borishi, kasbiy muammolarni ko'ra olishi va ularni yechishning umumiy usullari va yo'llarini o'rganishi;
- o'quv-tadqiqot davomida olingan axborotlarni matn, jadval yoki tasvirlar (chizma, rasm) shaklida mujassamlantiraolishi;
- tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslashi;
- sohabo'yichayechilayotgan ilmiy masala-muammolarni tahlil qilishi;
- qo'yilgan masalani yechish usullarini ko'rib chiqishi va eng samaralisinaniqlashi;
- eng samarali muqobil yechimni ilmiy jihatdan asoslabberishi;
- ilmiy masala yniechiming natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalarida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashilozim.



ashyolarni va jarayonlarni o'rganish orqali o'z oldiga kafedra va ilmiy rahbar tomonidan qo'yilgan ilmiy tadqiqot ishining natijasi hisoblanadi. Dissertatsiya mavzusi fan-texnika taraqqiyotida, iqtisodiyot, ishlab chiqarishga, ijtimoiy sohalarida ilg'or va dolzarb masalalarga bag'ishlangan muayyan bir vazifaning ilmiy asoslangan yechimini topishga, tavsiyalar ishlab chiqishga, statistik ma'lumotlar tahliliga qaratilgan va natijaviy yechimiga ega bo'lishi zarur. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi iste'molchining buyurtmasi bo'yicha taklif qilinishi, kafedrada olib borilayotgan dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlarning ma'lum bir mavzusidan iborat bo'lishimumkin.

**1.3. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonida magistrant vazifalari:**

- ilmiy izlanishlar olib borishi, kasbiy muammolarni ko'ra olishi va ularni yechishning umumiy usullari va yo'llarini o'rganishi;
- o'quv-tadqiqot davomida olingan axborotlarni matn, jadval yoki tasvirlar (chizma, rasm) shaklida mujassamlantiraolishi;
- tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslashi;
- sobabo'yicha yechilayotgan ilmiy masala-muammolarni tahlil qilishi;
- qo'yilgan masalani yechish uslublarini ko'rib chiqishi va eng samaralisini aniqlashi;
- eng samarali muqobil yechimni ilmiy jihatdan asoslab berishi;
- ilmiy masala yechimining natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalarida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashilozim.

**1.4. "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" magistratura mutaxassisligi uchun ilmiy tadqiqot ishi va dissertatsiya tayyorlash bo'yicha magistrantlarga semesterlar bo'yicha vazifalar**

<b>1-bosqich 1 semestr dagi vazifalar</b>	
Dissertatsiyaning mundarijasini tuzish;	
Amnotatsiya (tayyorlanadigan dissertatsiyaning kengaytirilgan ish rejasi, 4 betgacha);	
Adabiyotlarro'yxatini ishlab chiqish (200 ta kitob, 200 ta sayt);	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqol tayyorlash, 1 ta taxrorijda;	
Ilmiy ishlar konsepti (50 ta ilmiy asar);	
Universitet tarmoqi uchun bir biznes - g'oya.	
<b>1-bosqich 2 semestr dagi vazifalar</b>	
Adabiyotlarro'yxatini takomillashtirish;	
Dissertatsiyaning birinchi bobini tayyorlash;	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqol chop etish;	
Grant loyihasi to'liqlash chiqiladi.	
<b>Yozgi ta'tildagi vazifalar</b>	
Dissertatsiya tematikasi bo'yicha xorij tajribasini tahlil yetish;	
Dissertatsiyaning ikkinchi bobini tayyorlash.	
<b>2-bosqich 1 semestr dagi vazifalar</b>	
Dissertatsiya yakunlanib, kirish va xulosadan qolgan qism chiqariladi;	
Haroylikilmiy hisobot;	
2 tamaqol chop etish;	
Grant loyihasini taqdim qilish;	
Universitet uchun bir biznes - g'oya berish;	
Patent o'qib oshqatadil qo'vchi hujjat olishga harakat qilish?	
<b>2-bosqich 2 semestr dagi vazifalar</b>	



Dissertatsiya ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish;  
Amaliyot davrida ilmiy g'oyalarni sinovdan o'tkazish va hujjatlashtirish.  
Kirish va xulosani tayyorlash;

Izoh: 1- Granti o'yi hasiyat yozilgan 3, tanlovgaqamashgan 4, g'olibbo'lgan 5 bahooladi.  
2-Dissertatsiya ilmiy o'yoq paytda magistrantning patent to'lganligi, ranti lardag' o'libbo'lganligi, ikkita ilmiy natijaga.

## 2. Ilmiy tadqiqot ishini olib borish

### 2.1. Ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar

Magistrant magistrlik dissertatsiya mavzusi bo'yicha adabiyotlar bilan tanishishi va mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi, internet sahifalaridan olingan ma'lumotlar hamda dissertatsiyaga oid nashr etilgan ilmiy ishlarni o'rganishi birinchi qilinadigan ish hisoblanadi.

№ sana	Bajarilgan ishlar mazmuni	Bajarilishi haqida rahbar xulosasi

Ilmiy rahbartomondan dissertatsiyaga oid topshiriqlar berilib, harbiy topshiriq uchun ma'lum bir hudud o'rganiladi.  
Tadqiqot natijasida o'rganilgan obyekt haqida ilmiy ma'lumotlar tayyorlanadi.  
Amaliyotlarni yakunlashda o'rganilgan obyekt haqida ilmiy dissertatsiya bo'yicha ma'lumotlar to'planib, shu asosda ilmiy dissertatsiya matnini ham ishlab chiqariladi.

t/r	Topshiriqning mazmuni	Bajarish muddati		Bajarilishi (ballarda)
		boshlash	tugallash	

## 2.2. Magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlashdan maqsad

Magistrantlar o'z taqdimotini magistrlik dissertatsiyasini yozish va yoqlash bilan yakunlashlari lozim. Magistrlik dissertatsiyasi universitet taqdimot natijalarini ko'rsatuvchi, talabning nazariy va amaliy bilimlarini umumlashtirib, ilmiy tadqiqot yaratish malakasini mujassamlantiruvchi ijodiy namunasidir. Magistrlik dissertatsiyasi bitiruvchining dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy salohiyati, mustaqil va erkin fikr yuritish qobiliyati, yozma nutq madaniyatini ham yaqqol namoyish etishga xizmat qiladi. Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy-siyosiy saviyasi, hayotiy-amaliy ahamiyati jihatidan fan nomzodligi dissertatsiyasiga yaqin va oliy o'quv yurtlari diplom ishlaridan baland darajada turishi kerak. Har bir magistrlik dissertatsiyasi mavzusi amaliyot bilan, talabning mehnat faoliyati, ixtisosi va ish joyi, magistratura mutaxassisligi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lmog'i darok. Mavzular, ifoda tarziga ko'ra, aniq bo'lishi, kafedralararo takrorlanishlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Magistrlik dissertatsiyasi iqtisodiyot faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish masalalarini yoritishi, mustaqil O'zbekiston Respublikasi siyosatiga muvofiq, milliy mustaqillik mafkurasini ilgari suradigan ravishda bitilmog'i zarur. Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy yoki ilmiy - texnik mazmunli, tugallangan va aniq ilmiy natijaga ega bo'lgan, tanlangan mavzu bo'yicha bajarilgan bitiruv ish sifatida ko'rilib, u fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy darajasiga mos bo'lishi lozimdir.

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi universitet talabalarida ilmiy izlanish ko'nikmalarini takomillashtirish va ilmiy tadqiqot yaratishdan iboratdir. Talabalar magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida, taqdimot natijalarini o'rganib, bilimlarini umumlashtirishga, uning natijalarini ilmiy ravishda aks ettirishlari lozim. Magistrlik dissertatsiyasi talabalarining dunyoqarashlari, bilim - saviyalari, ilmiy



umumlashma fikrlarini yozma shaklda savodli ifodalashlarini taqozo etadi. Magistrlik dissertatsiyasida tanlangan mavzu bo'yicha muammolar ko'rsatilib, uning yechimlari tahlil qilingan bo'lishi kerak. Shuning uchun, barcha talabalar magistrlik dissertatsiyasini yozishlari shart. Magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan maqsadni imtihon yoki boshqa biror sinov turi bajara olmaydi.

### 2.3. Magistrlik dissertatsiyasining vazifasi

Tanlangan mavzuning nazariy-amaliy muammolarini yoritish magistrlik dissertatsiyasining asosiy vazifasidir. Magistrlik dissertatsiyasi talabaning Universitet dargohida olgan bilimlari natijasini ifodalashi zarur. Magistrlik dissertatsiyasida talabaning nazariy qarashlari, uning mehnat faoliyati samaralari bilan mushtarak ravishda mujassamlashmog'i dardkor. Bugungi kun talablarigina emas, balki istiqbol maqsadlariga ham xizmat qilish magistrlik dissertatsiyasining oliy vazifasidir.

### 2.4. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi

Magistrlik dissertatsiya mavzusida tanlangan muammo dolzarb, aniq, ravshan ifodalangan bo'lishi kerak. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari, qoidaga ko'ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag'ishlanadi. Talabaning tor ixtisosidagi dolzarb muammolar magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga asos bo'ladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida ishlanayotgan mavzular bilan takrorlamasligi lozim. Mavzuni talabaning o'zi mustaqil yoki tegishli soha mutaxassislari, ilmiy rahbar bilan bamaslahat tanlaydi va mazkur mavzu bo'yicha dissertatsiya yozish qatori, tegishli ilmiy rahbar birlitirib qo'yilishi haqida kafedra mudiri nomiga ariza yozib murojaat qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi kafedrada muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Mavzu, o'quv yilining dastlabki oylaridagi kafedra kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanadi.

### 2.5. Magistrlik dissertatsiyasining mazmuni

Iqtisodiyot sohasida hosil bo'layotgan eng dolzarb muammolarning yangicha, yorqin ilmiy tahlili, yechimlari magistrlik dissertatsiyasining mazmunini tashkil etishi kerak. Magistrlik dissertatsiyasining g'oyaviy mazmuni O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati, milliy mustaqillik mafkurasi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Magistrlik dissertatsiyasining saviyasi yuqori bo'lishi zarur. Bitiruvchi magistrlik dissertatsiyasida sayoz fikrlashdan, qaytarilishlardan, siyosiy-g'oyaviy nuqsonlardan, ko'chirmakashlikdan saqlanishi talab qilinadi. Magistrlik dissertatsiyasi Universitet bitiruvchisining ilmiy-ijodiy mahsuli sifatida qaraladi.

### 2.6. Magistrlik dissertatsiyasining hajmi

Magistrlik dissertatsiyasining hajmi 10 ming so'zdan kam bo'lmasligi va 1,5 oraliqda 14 shifitli kompyuter yozuvida 70-80 sahifadan oshmasligi kerak (titul varaq, mundarija, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalar ko'rsatilgan hajmga kiritilmaydi).

Agar magistrlik dissertatsiyasi talab qilingan hajmda bajarilgan bo'lsa-yu, unda ilmiy yangilik bo'lmasa, dissertatsiya amaliyot va bitiruvchining mehnat faoliyati bilan bog'langan bo'lmasa, dissertatsiyaning mazmuni sayoz bo'lib, qaytarishlar, ko'chirmalar mavjud bo'lsa, dissertatsiya qayta ishlanishga yuboriladi. Uslubiy ko'rsatma talablari darajasiga yetkazilmaguncha muhokamaga qabul qilinmaydi.

### 2.7. Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi

Akademik bitiruvchisining magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy jihatdan Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy tadqiqotlar uchun yaratilgan andozasiga muvofiq bo'lishi kerak. Zotan, bu ishlar ilmiy tadqiqot yaratishga tayyorgarlik, hatto, ularning ba'zilar chinakam ilmiy tadqiqot darajasida yoziladi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, asosiy qismni tashkil etuvchi 3-ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat bo'ladi.

Kirish qismida uni o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarni asoslovchi bandlar va ishning tuzilish tarkibi kabi masalalar bo'lishi zarur.



Dissertatsiyaning kirish qismida magistrantning ilmiy masalani yechilishi bo'yicha:

- tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslashi;
- tadqiqotning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etishi;
- tadqiqotning predmetini, ob'ekti aniqlashi va ta'riflashi;
- tadqiqot usuli yoki usullarni tanlashi;
- tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy, amaliy va uslubiy tahlil qilishi;
- olingan xulosalarni shakllantirishi, natijalarni baholashi va aniq takliflarni kiritishi kerakdir.

Magistrlilik dissertatsiyaning birinchi bobida tadqiqotning ilmiy, uslubiy va nazariy jihatlarini yoritilishi lozim bo'lib, unda tadqiqot olib borilgan ob'ektning batafsillashirilgan tasnifi keltirilishi zarurdir.

Ikkinchi bobda esa, magistrlik dissertatsiyaning, tanlangan mavzu asosida, tadqiqot qilinayotgan masalalarni amaliy jihatdan o'rganib, jahon tajribasini tahlil qilish asosida mavjud muammolarni aniqlash talab etiladi.

Uchinchi bobda muallif tomonidan o'rganib chiqilgan ma'lumotlarni tahlil etish asosida aniqlangan muammolarni hal etish yo'llari va o'rganilayotgan ob'ektni takomillashtirish bo'yicha ko'rsatma, uslubiy yondoshuv, tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda ilgari surilayotgan taklif va mulohazalar asoslanadi.

Magistrlilik dissertatsiyaning xulosa va takliflar qismida amalga oshirilgan ishlarning natijalaridan kelib chiqqan holda amaliy tavsiyanomalar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida (davlat qonunlari, Prezident farmonlari, asarlari, hukumat qarorlari va boshqa adabiyotlar alfavit ketma-ketligida beriladi) magistrlik dissertatsiya bo'yicha ishlatilgan manbalar ro'yxati talab asosida beriladi.

Ilovalar qismida dissertatsiya ishining ob'ekti bo'yicha olingan amaliy va uslubiy ma'lumotlar keltiriladi.

## 2.8. Magistrlik dissertatsiyaning shakli va o'lchami

Magistrlilik dissertatsiyasi bitiruvchi tomonidan A-4 formatidagi oq qog'ozga kompyuter grafikasida, savodli yozilgan, muqovalangan holatda topshiriladi. Magistrlik dissertatsiyasi 2 nusxada: bir nusxa ish bajarilgan kafedraga, bir nusxa Universitet axborot-resurs markaziga taqdim etiladi. Axborot-resurs markaziga dissertatsiya (Universitet ilmiy-ma'rifiy jamoasi va talabalar tanishib ulgurishlariga imkoniyat yaratish maqsadida) himoyadan 10 kun oldin topshiriladi. Magistrlik dissertatsiyaning tituli varag'ida universitet nomi, dissertatsiya bajarilgan kafedraning nomi, mavzu, ilmiy rahbar, ilmiy darajalari, bitiruvchining ism-familiyasi, dissertatsiya bajarilgan amaliyot joyi va yili to'g'ri aks ettiriladi (1-ildovaga qarang).

## 2.9. Magistrlik dissertatsiyaning yozilishi va uslubiyati

Magistrlilik dissertatsiya, asosan, o'zbek va rus tillarda yoziladi, ba'zi hollarda chet tillarda (ingliz, nemis, frantsuz) ham yozilishi mumkin.

Agar talaba dissertatsiyani chet tilida yozmoqchi bo'lsa, bu kafedra kengashida muhokama qilib, tasdiqlanishi shart. Chet tilida yozilgan magistrlik dissertatsiyaga o'zbek tilida yozilgan va uni mazmunini aks ettiruvchi annotatsiya taqdim etilishi kerak.

Dissertatsiyaning tili tiniq, tushunarli, grammatik hatto va kamchiliklardan xoli bo'lishi kerak. Magistrlik dissertatsiyasi ham ilm kishilari, ham amaliyotchilar qabul qiladigan uslubda yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

## 2.10. Magistrlik dissertatsiyaning hayotga tadbiqu

Magistrlilik dissertatsiyasi bitiruvchining nazariy bilimlari hamda hayotiy tajribasi, amaliy mehnat faoliyati saboqlari asosida vujudga keladi. Bundan tashqari, bitiruvchi magistrlik dissertatsiyasini yozishi va himoyaga tayyorlashi jarayonida nazariy fikr va xulosalarini hayotga tadbiqu etib borishi, ya'ni ilmiy-ommabop gazeta-jumallarda hamda internet tizimida maqolalar e'lon qilishi yoki magistrlik dissertatsiyasi yechimlarini ishlab chiqarishga tadbiqu etib borishi lozim. Magistrlik



□ tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistratura talabasiga ko'maklashish;

□ magistratura talabasining belgilangan kalendar ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;

□ dastlabki himoyagacha magistrlik dissertatsiyasiga xulosaberish.

### **Ilmiy rahbar xulosasi quyidagilarni o'z ichiga olish kerak:**

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi;
- dissertatsiya mavzusining tadqiqot ob'ekti bilan o'zaro bog'liqlik darajasi;
- tadqiqotdagi belgilangan maqsad va vazifalarning yoritilish darajasi;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi;
- izlanish natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning e'tiborgamolligi;
- magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talab va mutaxassislikka mosligi kabilami o'zida aks ettirish zarur.

Ilmiy rahbar magistrlik dissertatsiyasi haqidagi xulosalarini himoyadan 3 kun oldin himoya hay'atiga yozma ravishda taqdim etishi lozim (9-ildovaga qarang).

Magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida belgilangan talablarga muvofiq, magistrga tayinlangan ilmiy maslahatchiga ham ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat yuklatiladi.

### **3.2. Opponentlar**

Yoqlanadigan magistrlik dissertatsiyasiga bitta opponent (ichki taqrizchi) va bitta tashqi ekspert belgilanadi. Opponentlar kafedra ustoz-murabbiylari tarkibidan va tashqaridan yetuk tadbirkorlar hamda sohada faoliyat ko'rsatib kelgan tajribali mutaxassislar ichidan tanlanadi. Opponentning magistrlik dissertatsiyasi haqidagi taqrizi himoyadan kamida 3 kun oldin yozma ravishda, ishlab chiqarish muassasalarining muhri bilan tasdiqlangan holatda, tashqi ekspertning xulosasi bilan himoya hay'atiga taqdim etilishi lozim (10-ildovaga qarang). Taqriz hajmi ikki oraliq bosmada 2-3 betdan kam bo'lmasligi, unda magistrlik dissertatsiyasining mohiyati, yutuq va kamchiliklari dissertatsiyani baholash mezonlariga mos holda yoritilgan bo'lishi muhim.

dissertatsiya natijalarini matbuotda e'lon qilgan yoki ishlab chiqarishga taqdim etilgan bitiruvchilar mehnati, himoya vaqtida e'tiborga olinadi.

### **3. Magistrlik dissertatsiyaga rahbarlik kava taqrizlarga qo'yiladigan talablar**

#### **3.1. Ilmiy rahbar: tayinlash tartibi, uning majburiyatlari**

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik asosan kafedrada ishlaydigan professorlar, fan doktorlari, dotsentlar, fan nomzodlari doirasidan tanlanadi. Ilmiy rahbarlik shuningdek, kafedradan tashqaridagi ilmiy tadqiqot institutlaridan, oliy o'quv yurtlaridan, davlat boshqaruvi idoralari va ishlab chiqarish korxonalaridan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalar olimlari, tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali mutaxassislari, shuningdek, belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy darajalar yoki ilmiy unvonlarga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Kafedra doirasidagi ikki o'qituvchi yoki kafedra tashqarisidagi mutaxassislar birgalikda bir bitiruvchining magistrlik dissertatsiyasiga hamrahbarlik qilishlari mumkin. Rahbarlarning birini nazariyotchilardan, ikkinchisini amaliyotchilardan belgilash mumkin. Belgilangan talablarga muvofiq magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi. Professor yoki fan doktori beshtagacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis uchtagacha magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Kafedralar tomonidan taqdim etilgan va kafedradamuhokama qilingan magistrlik dissertatsiya mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) magistratura bo'limi boshlig'i taqdimnomasiga asosan magistratura talabalari o'qiyotgan birinchi o'quv yilining birinchi ikki oyi ichida rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Ilmiy rahbar mavzu tanlanishidan tortib, himoya jarayonining oxirigacha bitiruvchiga yo'l-yo'riq, ko'rsatmalar berib, magistrlik dissertatsiyasi tayyorlanishining sifati, saviyasi va ilmiylikiga muallif bilan barobar javob beradi.

Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

□ tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;



Ilmiy rahbar xulosasi va taqrizlarga qo'yiladigan talablar. Ichki va tashqi taqrizchilar universitatning tegishli mutaxassislik kafedrasini tavsiyasiga asosan shakllantiriladi va rektor tomonidan tasdiqlanadi. Taqrizlar, aynan ajratib ko'rsatilgan holda mantiqiy ketma-ketlikda quyidagilarni o'zida aks ettirishi tavsiya etiladi.

**Ichki va tashqi taqrizlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:**

- mavzuning dolzarbligi;
- dissertatsiyaning ilmiy yangiligi;
- amaliy natijalarning asoslanganligi;
- tadqiqotning amaliy ahamiyati;
- tadqiqotning mazmuni hamda tugallanganlik darajasi;
- ma'lumotlar va matnning bayon etish tili hamda uslubi;
- tadqiqotning ilmiy-amaliy qiymati;
- magistrlik dissertatsiyasining oldiga qo'yiladigan talablar va magistratura mutaxassisligiga mosligi kabi masalalarni yoritishi maqsadga muvofiqdir.

Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, magistratura talabasi tomonidan kasb odob-ahloq qoidalarini (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashirish, yolg'on tsitatani keltirish va boshqalar) buzilganini aniqlangan taqdirda, shuningdek, ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmaganda taqrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga qo'yish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa beradi. Magistrlik dissertatsiyasini talab darajasida rasmiylashtirilgan holda ilmiy rahbar xulosasi, taqrizlar bilan birgalikda mutaxassislik kafedrasiga topshiriladi.

**4. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish va himoya qilish tartibi**

**4.1. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish yuzasidan qo'yiladigan talablar**

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash magistrantning kalendar ish rejasida<sup>2</sup> belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi (joyiha rejasini) tegishli mutaxassislik kafedrasida muhokamadan o'tkaziladi. Dissertatsiyaning tegishli bob va qismlari kesimida tadqiqot etilayotgan muammo va uning nazariy-amaliy yechimlari manbalari asosida mantiqiy ketma-ketlikda asosli yoritilishi yakuniy xulosa va tavsiyalari mazmunining o'zaro mantiqan yaxlitligini ta'minlashga qaratilishi muhim hisoblanadi. Xususan, magistrlik dissertatsiyaning tarkibi quyidagicha bo'ladi:

- titil varaq (1-ilova);
- magistrlik dissertatsiyasining qisqacha annotatsiyasi ikki tilda, ya'ni o'qitish tili va ingliz tilida (2-ilova);
- mundarija (3-ilova);
- kirish (4-ilova);
- asosiy qism (5-ilova);
- xulosa va takliflar (6-ilova);
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (7-ilova);
- ilovalar (8-ilova).

Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish yuzasidan qo'yidagilarga talablar.

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi kamida 3 bobdan iborat bo'lib, boblar hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;
- tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayoni;

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2015 yil 2 mart 36-son qarorining 2-ilovasida keltirilgan shaklda ishlab chiqilgan va rasmiylashtirilgan Magistratura talabasi kalendar ish rejasini nazarda tutilmoqda. //Manba: <http://www.lex.uz>



- tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko'rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni.

Magistrlik dissertatsiyasi matni A4 formatdagi qog'oz varag'ining bir tomonida joylashishi va qoida tariqasida, standart varaq 1,5 qator oralig'ida yozilishi, har bir bet: yuqoridan va pastdan 2 sm; chapdan 3 sm; o'ngdan 2 sm hoshiyaga ega, xatboshilar orasidagi oraliq - 5-6 belgili bir xilda bo'lishi lozim. Magistrlik dissertatsiyasi matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman, 14shriftida yozish tavsiya etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasining beklari titul varag'i (I) va mundarija (2)dan boshlab sanaladi. Ammo, titul varag'iga - I va mundarijaga-2raqamlari qo'yilmaydi. Magistrlik dissertatsiyasibetlariraqami, uning kirish qismidan, ya'ni 3 raqamidan boshlanadi va mazkur betning tartib raqami varaqning pastki o'rt qismida keltiriladi, uning oxirgi varag'igacha izchil ketma-ketlikda raqamlanadi. Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy qismlari, ya'ni titul varag'i, mundarijasi, kirish, har bir bobi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismi yangi betdan rasmiylashtiriladi. Dissertatsiya tarkibiy qismlarining bosh sarlavhalari (Mundarija, Kirish, Xulosa va takliflar, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, Ilova) bosh harflardayoziladi.

Dissertatsiyaning titul varag'ini namumaga mos ravishda rasmiylashtirish talab etiladi. Dissertatsiyaning boblari rim raqamlari bilan I bob, II bob, III bob tarzida raqamlanadi va sarlavhalarga ega bo'ladi. Paragraflar esa, boblarga mos ravishda I.1, I.2 yoki 2.1, 2.2 tarzida arab raqamlari bilan raqamlanadi va sarlavhalarga ega bo'ladi. Har bir bob va paragraf sarlavhalarining yuqori va pastki qismidan 12 o'lchamli (12 pt) oraliq qoldirilishi kerak. so'zi bilan ifodalaniib, ular matnda qulay tarzda joylashtirilishi lozim.

Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotdan olingan birinchi havola, ya'ni iqtibos u joylashgan betning pastkiqismidali raqamida (1 -matn yuqorisidagi belgi tarzida) keltiriladi. Keyingi iqtibos ham shu tariqa ketma-ketlikda raqamlanadi. Iqtibos matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman, 9 shriftida keltirilishi tavsiya etiladi. Magistrlik dissertatsiyasida keltirilgan surat, grafik, chizma,

diagramma va shu kabilar rasmlar dissertatsiya boblari tartib raqami ko'rsatilgan holda ketma-ketlikda keltiriladi (masalan: 1.1-rasm, 1.2-rasm, 1.2-rasm va shu tarzida) rasmning tartib raqami va nomi uning pastki qismida joylashtiriladi (dissertatsiyaning ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno). Rasmga izoh berilishi, uning manbasi keltirilishi talab etiladi.

Dissertatsiyada statistik materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi mumkin. Jadvallar tegishli boblar tartib raqami ko'rsatilgan holda ketma-ketlikda (masalan: 1.1- jadval, 1.2-jadval va shu tarzda) jadvalning yuqori o'ng burchak qismida, jadvalning nomi keltirilgan holda uning yuqori qismida joylashtiriladi. Jadval va rasmlar bir varaqdan oshib ketmasligi lozim. Agar hajmi bir varaqdan oshadigan bo'lsa, uni ilovada aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya matnida formula mavjud bo'lsa, unda katta va kichik harflar, yuqori va pastki indekslar "Microsoft Word" matn redaktorining "Formula" funksiyasi yordamida aniq keltirilishi shart. Formula va tegishli material "LaTeX" formatida berilishi mumkin. Formulada belgilarning o'lchami ifodalaniishi qo'yidagicha bajarilishi tavsiyaetiladi:

- katta harflar va raqamlar 5-6 mm;

- kichik harflar 3 mm. dan kam bo'lmagan ko'rinishda;

- daraja ko'rsatkichlari va indeksleri 2 mm. dan kam bo'lmagan hajmda.

Formula belgilarining izohi bevosita uning qo'yi qismida formuladagi ularning ketma-ketligi bo'yicha keltiriladi. Formula belgilarining ma'nolari birinchi qatori bunda so'zi bilan ikki nuqtasiz boshlanadi. Har bir belgining ma'nosi yangi qatordan boshlanishi lozim. Formulalar matnda alohida bo'sh qatorlar bilan ajratib yoziladi. Har bir formulaning yuqori va pastki tomonlaridan 12 o'lchamli (12 pt) oraliq qoldirilishi talab etiladi.

Dissertatsiya matnida foydalanilgan rasm, jadval yoki formula havola qavs ichida, tegishli rasm, jadval yoki formula joylashgan bob masalan: (1.1), (1.2) va shu kabi tarzda tartib raqami (belgisi) ko'rsatilgan holda "qarang so'zi" qo'llaniladi.

Dissertatsiya matnida ko'rsatilgan shaxslarning familiyasi, ismsharifi hamda tashkilot va mahsulotlarning nomlari va boshqa atoqli otlar o'zgartirilishiga yo'l



qo'yilmaydi. Dissertatsiyaning ilovalari alohida betlarda ketma-ketlikda (masalan: 1- ilova, 2-ilova va shu tarzda) ifodalanadi. Har bir ilovaga dissertatsiya tarkibida iqtibos keltirib o'tilgan bo'lishi lozim. Magistrlik dissertatsiyasining xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa: qismi 4 sahifadan oshmasligi kerak. Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistratura talabasi kasb odob-axloqi qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashirish, shuningdek, yolg'on sitatalar keltirishga yo'l qo'ymaslik) lozim. Magistrlik dissertatsiyasi magistratura talabasi o'qitish tilida (kafedra yoki magistratura bo'limi tavsiyasiga nuvofiq chet tilda) tayyorlanadi. Chet tilda tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasiga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari tajriba bilan o'tkaziladi.

#### 4.2. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish jarayonining asosiy qoidalari

Magistrlik dissertatsiyasining himoyasi ilmiy munozara xarakteriga ega bo'lib, o'ta talabchanlik va qat'iyat bilan ilmiy mulqot odobiga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Magistrlik dissertatsiyasi maxsus tuzilgan himoya hay'ati qoshida himoya qilinadi. Himoya hay'ati tarkibida har bir tor sohalar bo'yicha kamida 3 ta mutaxassis qatnashishi ko'zda tutilgan holda tuziladi va universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Magistrlik dissertatsiyasi kafedra majlisida yoki o'zaro ixtisosi yaqin kafedralarning qo'shma yig'ilishida muhokama etilgach, ushbu yig'ilishning himoyaga tavsiya haqidagi majlis bayonnomasi hamda ilmiy rahbarning yozma xulosasi asosida himoya hay'ati magistrlik dissertatsiyasini tugallangan ish sifatida qabul qiladi. Himoya hay'ati dissertatsiya muhokama etgan kafedra taklifini hisobga olgan holda opponet va tashqi ekspertni tayinlaydi, shuningdek, himoya kunini belgilab, himoya jarayoni uchun sharoit yaratadi. Hay'at himoya jarayonini qizg'in, erkin munozara, fikr almashuv ruhida o'tishini ta'minlaydi. Himoya jarayonini

himoya hay'ati raisi va kotibi tashkil qiladi va boshqaradi. Himoya jarayonida himoya hay'ati kotibining rasmiy ma'lumotnomasi, ilmiy rahbarning xulosasi, bitiruvchining magistrlik dissertatsiyasi asosida tayyorlangan ma'ruzasi, rasmiy opponet va tashqi ekspert taqrizlari tinglanadi. Rasmiy opponetning, himoya vaqtida shaxsan ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Tashqi ekspert xulosasi salbiy bo'lgan holda, kafedra mutaxassislari ishtirokida 3 kishidan (2 kishi tashqaridan va 1 kishi kafedradan) iborat maxsus ekspert guruhi tuziladi. Ekspert guruhi ishni hamda tashqi ekspert taqrizini o'rganadi va yozma ravishda xulosa beradi. Maxsus ekspert guruhi tashqi ekspertning salbiy taqrizini ma'qullamagan holatda, ekspert guruhi xulosasi tashqi taqrizchiga yetkaziladi va tashqi ekspertning bahosi inobatga olinmaydi. Maxsus ekspert guruhi tashqi taqriz xulosalarini ma'qullagan holatda, talaba ekspert guruhi xulosasiga ko'ra tashqi ekspert taqrizida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun himoya jadvalidan olinib, himoya uchun buyruq asosida qo'shimcha kun belgolanadi. Ish tayyor bo'lgach, avvalgi tashqi ekspertga (maxsus ekspert xulosasiga ko'ra lozim bo'lsa, boshqa tashqi ekspertga) qo'shimcha taqriz uchun yuboriladi. Ish yana salbiy bo'lgan holda, magistrlik dissertatsiyasining himoyasi o'tkazilmaydi.

Himoya jarayoni asosida hay'atning bayonnomasi tuziladi. Himoya jarayoni bilan bog'liq hujjatlarni himoya hay'ati kotibi yuritadi va bu hujjatlar keyinchalik saqlanadi. Ustoz-murabbiylar va talabalarining norasmiy opponet sifatidagi chiqishlariga ham imkoniyat beriladi. Lekin chiqishlarning sun'iy ravishda ko'p uyushtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Savol-javob va munozaralardan so'ng himoya yakunlanadi.

#### 4.3. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedrada shakllantirilgan komissiya oldida amalga oshiriladi. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasiga boshqa kafedralardan, shuningdek, kadrlar iste'molchilari bo'lgan tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin. Dastlabki himoyaga qadar magistratura talabasi ichki va tashqi taqrizlar hamda ilmiy rahbar xulosasini olishi, shuningdek, magistrlik



**dissertatsiyasi mavzusiga doir ma'lumotlar yoritilgan kamida 2 (ikki) va undanko'pilmiy maqola yoki tezisini chop etgan bo'lishi kerak.** Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi bosqichma-bosqich (masalan, boblar kesimida) magistratura talabasining kalendar ish rejasi bo'yicha belgilangan muddatlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi yakunida "rasmiy himoyaga tavsiya etildi" yoki "rasmiy himoyaga tavsiya etilmadi" tarzidagi yakuniy xulosa kafedra yig'ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oldidan taqdim etiladigan hujjatlar (11-ilova) talab darajasida rasmiylashtirilgani tegishli mutaxassislik kafedrası muhokama etadi va maxsus jildda Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etilishini ta'minlaydi.

#### **4.4. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi**

Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi universitetda shakllantirilgan Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

Komissiya raisi dissertatsiya himoyasi vaqtida mavzuning nomi, muallifning ismi-sharifi, shuningdek, boshqa zaruriy hujjatlarning mavjudligi haqida axborot berib, magistrning "tarjimai holi", uning o'zlashtirishi, chop etilgan maqolalari va boshqalar to'g'risida qisqa tavsif beradi. So'ng so'z ilmiy rahbarga beriladi. Ilmiy rahbar magistrning taqdiqot ishi yuzasidan o'z xulosasini va boshqa shaxsiy jihatlari haqida o'z mulohazasini bildiradi. Agar ilmiy rahbar himoyaga kela olmasa, uning xulosasi komissiya a'zolariga o'qib eshittiriladi.

So'ng ma'ruza uchun so'z magistrga beriladi. **Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi taqdimot materiallari bilan bayon etilishi 20 daqiqadan oshmasligi lozim.** Ma'ruza dissertatsiya mavzusi bo'yicha kirish, metodologiya, natijalar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Magistrant komissiya a'zolari diqqat-e'tiborini asosan o'tkazilgan taqdiqotning yakuniy natijasi, shaxsan ishlab chiqqan yangi nazariy va amaliy yo'l-yo'riqlarga

qaratmog'i kerak. Ma'ruza chog'ida barchaning e'tiborini zarur hollarda qo'shimcha tayyorlangan slayd, jadval va grafiklarga qaratish maqsadga muvofiqdir.

Nafaqat nutq matnining mazmuni, balki uni o'qib yoki gapirib berish, berilgan savollarga ishonchli, dadil javob berish, erkin nutq so'zlash qoidalariga rioya qilish ham ma'lum darajada himoya darajasini aniqlaydi. Magistrning nutqi nafaqat tushunarli bo'lishi, shuningdek ifodali bo'lishi ham zarur.

Magistrant ma'ruzasidan so'ng rais rasmiy taqrizchining bajarilgan dissertatsiyaga bergan taqrizini o'qib eshittiradi hamda taqrizda ko'rsatilgan taklif va mulohazalarga o'z munosabatini bildirish va savollarga javob berish uchun magistrantga so'z beradi. Shundan so'ng komissiya a'zolari tomonidan muhokama va ilmiy munozara boshlanadi. Ular dissertatsiyaga daxldor bo'lgan muammolar, taqdiqot usullari bo'yicha istalgan savollarni og'zaki tarzda berib, taqdiqot jarayoni va bajarilgan amaliy ishlar natijalarini aniqlashlari mumkin.

Beriladigan javoblar masalaning mohiyatiga taalluqli bo'lishi, magistrant berilgan savollarga kamtarlik va xushmuomalalik bilan javob berishi lozim.

Savollarga javob berishdan oldin uni diqqat bilan eshitib, yozib olishi zarur. Barcha savollarni eshitib, so'ng javob bergandan ko'ra, har bir savolga darhol javob berilgani ma'qulroq. Munozara tugagach, magistrant xohishiga ko'ra unga yakunlovchi so'z beriladi.

#### **4.5. Magistrlik dissertatsiyasini baholash tartibi**

Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasida Yakuniy Davlat attestatsiyasi komissiyasi a'zolari magistratura talabasini qo'yidagi mezonlar asosida baholaydi:

- magistrlik dissertatsiyasi taqdiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib beraolishi;
- magistratura talabasining taqdiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;
- foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek, xorijiy adabiyotlarning tanqidiy tahlili to'liqligi vachuqurligi;
- taqdiqot usullari amaliyotda qo'llanilishining asoslanganligi;



- olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyahamiyati;
- magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyati;
- magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni kuzata bilish malakasi;

Komissiya a'zolarining yopiq yig'ilishida himoya yakuni ko'rib chiqiladi va uni baholash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Mazkur qaror hay'at a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiyani baholash tashqi ekspert, taqrizchi, himoya hay'ati a'zolarining bergan baholari asosida amalga oshiriladi. Birkundarejalashtirilgan barcha talabalarning himoyasi tugagach, hay'at a'zolari himoya natijalarini har bir dissertatsiya himoyasi bo'yicha baholarini asoslab beradilar.

Magistrlik dissertatsiyasiga "qoniqarsiz" baho qo'yilganda, yoki u rasmiy himoyaga qo'yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 (uch) yil davomida uni qayta himoya qilish huquqiga ega.

#### 4.6. Mualliflik huquqi va magistrlik dissertatsiyasi natijalari

Magistrlik dissertatsiyasi mustaqil ilmiy-amaliy tadqiqot hisoblanadi. Unda kafedra bitiruvchisining mustaqil ilmiy-ijodiy faoliyati, shaxsiy dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qiyofasi, ilmiy-ma'rifiy yetuklik darajasi, falsafiy tafakkur qobiliyati va insoniy savodxonligi yaqqol namoyon bo'lishi kerak. Shuning uchun ham magistrlik dissertatsiyasi individual izlanish va ijodiy mehnat mahsuli hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiyalari hammualliflikda bajarilmaydi. Uni har bir bitiruvchi alohida o'zi yozadi. Agar magistrlik dissertatsiyasi yozilishi, himoyasi jarayonida mazkur ish boshqa biror tadqiqotni takrorlayotgani yoxud undan o'zlashtirilganligi aniqlansa, bitiruvchining mualliflik huquqi bekor qilinadi.

Chinakam ilmiy-ijodiy ish sifatida yozilgan magistrlik dissertatsiyalarining mualliflari mazkur tadqiqotlarini takomillashtirish maqsadida doktoranturaga yoki mustaqil tadqiqotchilikka tavsiya etiladi. Yaxshi yozilgan magistrlik dissertatsiyalarini alohida kitob holida yoxud ixchamlashtirib, yirik maqola sifatida

universitet rejasida nashr ettirish ko'zda tutiladi. Yuqori darajada magistrlik dissertatsiyasi yozgan bitiruvchilar kelgusi ish faoliyatlarini rivojini uchun muhim imtiyozga ega bo'ladilar.



## ILOVALAR

1- ilova (titul varaq shakli)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
(14 shrift)

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI (14 shrift)

Magistratura bo'limi (14 shrift)

Qo'lyozma huquqida (12 shrift) UDK:

ODINAEVA NIGINA FURKATOVNA (14 shrift)

“Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning  
raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos  
xususiyatlari” (16 shrift)

Mutaxassislik: 5A230102 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” (14 shrift)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA (16 shrift)

Ilmiy rahbar(14shrif) i.f.d (DSc), dots. O.S.Qaxxorov

Buxoro – 2021 (12 shrift)

(titul varag'ining orqa beti)

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti «Iqtisodiyot» kafedrasida bajarilgan. (14  
shrif)

Ilmiy rahbar  
(14shrif)

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni, F.I.SH.

Kafedra mudiri  
(14shrif)

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni, F.I.SH.

Magistratura bo'limi boshlig'i  
(14 shrif)

Imzo

Ilmiy darajasi va unvoni, F.I.SH



Magistrlilik dissertatsiyasining qisqacha annotatsiyalari (14 shrift) (o'qitish tili, rus tili va ingliz tillarida) namunasi

“Oliy ta’lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta’minlashda ta’lim sifatining o’ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

**ANNOTATSIYASI**

- Tayanch soʻzlar:
- Tadqiqot ob’ektlari:
- Ishtirokchilari:
- Tadqiqot metodlari:
- Olingan natijalar va ularning yangiligi: Amaliy ahamiyati:
- Tadqiqot natijalarining darajasi va iqtisodiy samaradorligi:
- Qoʻllanilgan sohasi:

**АННОТАЦИЯ**

- Ключевые слова:
- Объекты исследования:
- Цель работы:
- Методы исследования:
- Полученные результаты и их новизна:
- Практическая значимость:
- Степень внедрения и экономическая эффективность:
- Область применения:

**ANNOTATION**

- Key words:
- Subjects of research:
- Purpose of work:
- Methods of research:
- The results obtained and their novelty: Practical value:
- Degree of embed and economic efficiency:
- Field of application:

Mundarija shakli

**MUNDARIJA**

**KIRISH**.....

**IBOB**.....

1.1.....

1.2.....

1 bob bo'yichaxulosa.....

**II BOB**.....

2.1.....

2.2.....

2 bob bo'yichaxulosa.....

**3 BOB**.....

3.1.....

3.2.....

3 bob bo'yicha xulosa.....

**XULOSA VATAKLIFLAR**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO'YXATI**.....

**ILOVALAR**.....



Magistrlk dissertatsiyasining kirish qismi (varaqling yuqorisida 2 sm qoldirilgan holda)

#### KIRISH

Magistrlk dissertatsiyasining kirish qismi qo'yida keltirilgan:

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi:

Tadqiqot ob'ekti va predmeti:

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

Ilmiy yangiligi:

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili):

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi:

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Ish tuzilmasining tavsifi.

Yuqoridagi bandlar kesimida mantiqiy ketma-ketlikda aniq va qisqa bayon tarzda jami 5-7 (besh-yetti) bet hajmida bo'lishi lozim. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asatlaridan, shuningdek, soha olimlarning ilmiy ishlanmalaridan mavzuga daxldor iqtiboslar keltirilishi maqsadga muvofiqdir.

#### Magistrlk dissertatsiyasining asosiy qismi

Magistrlk dissertatsiyasining asosiy qismi 3 (uch) bobdan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning asosiy qismi boblar hajmi o'zaro mutanosib bo'lishi talab etiladi va ular mavzuning mohiyatidan kelib chiqib, qo'yidagilarni:

- tadqiqot mavzusiga taalluqli manbalardan keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;
- tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismibayoni;
- tadqiqot e'tilayotgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko'rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayonini o'zida qamrab olishilozim.

Dissertatsiyaning har bir bobiyakunidata tadqiqotning asosiy natijalari yuzasidan qisqa tarzda qisqa xulosa va takliflar keltiriladi.

Magistrlk dissertatsiyasining xulosa va takliflar qismi (varaqling yuqorisida 2 sm qoldirilgan holda)

#### XULOSA VA TAKLIFLAR (jami 4 bet hajmida)

Magistrlk dissertatsiyasining xulosa qismida olib borilgan tadqiqot ishining yakuniy natijasi sifatida xulosa, taklif-tavsiyalar qisqa va aniq keltiriladi.

Xulosa tahririy jihatdan qisqa, mantiqan puxta va aniq ifodalangan bo'lishi, bandlangan (raqamlangan) holda yoritilishi (uning hajmi 4 (to'rt) sahifadan oshmasligi) lozim.



**Magistrlik dissertatsiyasining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** (varaqlarning yuqorisida 2 sm qoldirilgan holda)

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**(quyidagi bandlar kesimida

varaqlar soni cheklanmagan, dissertatsiya hajmiga kirmaydi)

Magistrlik dissertatsiyasi yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Dissertatsiyada foydalanilgan materiallar manbai, uning muallifi va nomi to'liq ko'rsatilishi lozim. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati magistrlik dissertatsiyasi matnida havola qilingan barcha ilmiy va boshqa nashrlar ro'yxatidan iborat bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qo'yidagi uch qismdan iborat bo'ladi:

**1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.**

Ularning ro'yxati qo'yidagi ketma-ketlikka amal etilgan holda keltiriladi: O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari, kitob va turkum nashrlar (darslik, o'quv qo'llanmalar alifbo bo'yicha).

**2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar.**

Ularning ro'yxati qo'yidagi ketma-ketlikka amal etilgan holda alifbo bo'yicha keltiriladi: dissertatsiyalar avtoreferatlari, jurnal va gazetalaridagi maqolalarga havolalar, xorijiy ilmiy nashrlar, ilmiy ishlar va konferensiya to'plamlariga havolalar.

**3. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.**

Ularning ro'yxati qo'yidagi ketma-ketlikka amal etilgan holda alifbo bo'yicha keltiriladi: statistika va hisobot materiallari, internet saytlari.

Magistrlik dissertatsiyasida foydalanilmagan va havola qilinmagan adabiyotlari ro'yxatga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

**Magistrlik dissertatsiyasining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining namuna shakli**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent, 2017 yil 7 fevral. Manba: <http://press-servis.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – 1997 yil 29 avgust. Ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent. – 2007. – 35-46-b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. № 406. – Toshkent. – 2016 yil 14 sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 yil 21 sentyabr. Manba: <http://press-servis.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Manba: <http://press-servis.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori. – Toshkent. 2017 yil 27 iyul. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda. Manba: <http://press-servis.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori. – Toshkent, 2018 yil 5 iyun. Manba: <http://press-servis.uz>.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika OTMlari reytingini baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 371-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent. – 2013. – 1. – 10-modda. – 2012 yil 29 dekabr. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil 4/2019 (№ 00042) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 155
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli Qarori. – Toshkent. – 2017 yil 22 may. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori. – Toshkent. – 2018 yil 20 oktyabr. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 19-2018-son buyrug'i. - Toshkent. - 2018 yil 9 avgust. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 20-2018-sonli buyrug'i. - Toshkent. - 2018 yil 10 sentyabr. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" Farnoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
14. Mirziyoyev Sh.M. Jadal rivojlantirish uchun zamonaviy kadrlar kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilmfan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalari" ga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. Toshkent shahri, 2018 yil 24 oktyabr. Manba: <http://press-servis.uz>.
15. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
16. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tarbiy-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari ga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
17. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
18. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. - T.: O'zbekiston, 2017. - 592 b. // <http://www.lex.uz>
19. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi> 28.12.2018.
20. Mirziyoyev Sh.M. Asosiy maqsad - mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ilmfan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish" da so'zlagan nutqi. Toshkent, 2019 yil 28 may. Manba: <http://press-servis.uz>.
21. Qahhorov O.S. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Dissertatsiya avtoreferati. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Toshkent, 2017. 6-7 betlar.
22. Navruz-Zoda B.N. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida sifat ta'minoti. - T.: Xarizma design, 2008. - 245 b.

23. Zahidova Sh.Sh. Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida). Iqt.f.n. diss.avtoref. - T.: TMI, 2012.;
24. Карпенко М. Новая роль высшего образования в эпоху развития инновационной экономики, глобализации и демопуляции // Знание. Понимание. Умение, 2007. № 4. - С. 31-39.
25. Ergashxodjayeva Sh.D., Nishonov D.Sh. Zamonaviy iqtisodiyot va innovatsiya ta'limi // O'zbekistonda bojxona ishining dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola to'plami. - Toshkent. - 2010. - 197-198-betlar.
26. Пастухов А.Л. Показатели и критерии управления знаниями в университетских комплексах // Проблемы современной экономики. - 2012. - 3(43). - С.344-348.
27. Болонский процесс: региональный ответ на глобальные проблемы. Статья подготовлена на основе доклада на международной конференции "Пути к общему будущему: изменение роли высшего образования в объединенном мире", состоявшейся 29-30 августа 2007 года в Университете ООН ЮНЕСКО (Токио, Япония). Источник: [www.unepoc.unesco.org](http://www.unepoc.unesco.org)
28. Рахимов Б.Х., Мажидов И.У. Роль профессионального образования в модернизации страны // Подготовка образованного и интеллектуально развитого поколения - как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации страны. Сборник статей международной конференции. 16-17 февраля 2019 года. - Ташкент, 2019. - С.41-43.
29. Акрамова Ш.Г. Роль человеческого капитала в обеспечении устойчивого инновационного развития // Иктисодийёт ва инновацион технологиялар, 2014. - 2. - 11 с.
30. Шумейко А.А. Интернационализация и регионализация высшего образования как фактор развития конкурентоспособности университета // Современные проблемы науки и образования, 2020. № 6. - 6 с <http://center-yf.ru/data/>
31. Инновационная конкурентоспособность. [Marketology/Innovatsionnaya-konkurentosposobnost.php](http://Marketology/Innovatsionnaya-konkurentosposobnost.php).
32. Сущность и модели инновационной деятельности. [https://studime.org/44996/investirovaniye/suschnost\\_modeli\\_innovatsiyonnoy\\_deyateli](https://studime.org/44996/investirovaniye/suschnost_modeli_innovatsiyonnoy_deyateli)

nosti



Magistrlk dissertatsiyasining ilovasi (varaqqing yuqorisida 2 sm qoldirilgan holda)

### ILOVALAR

(hajmi dissertatsiya umumiy hajmining 1/3 (uchdan bir) qismidan oshmasligi belgilangan)

Magistrlk dissertatsiyasining ilovalari uning asosiy matni bilan birga bitta jildga jamlangan shaklida rasmiylashtiriladi.

Ilovalarga magistrlk dissertatsiyasi matnini to'ldiradigan yordamchi materiallar kiritiladi. Ilovalarning ketma-ketligi dissertatsiya matnida ularga havola qilish tartibiga mos bo'lishi lozim.

**Buxoro davlat universiteti Magistratura bo'limi SA 230102 – "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" mutaxassisligi 10-11qt-19 guruhi bitiruvchisi Odinayeva Nigina Furqatovnaning "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi magistrlk dissertatsiyasigalimiy rahbar**

### XULOSASI

Jahon amaliyotidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni sifat jihatidan takomillashtirish, mehnat bozori talablarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmog'da. BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasida "ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish" dolzarb vazifa etib belgilandi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "inson kapitali" dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo yuqori daromadli mamlakatlarda 70 foiz, o'rta yuqori mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmog'da. Oliy ta'limning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri innovasion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib bormog'da. Jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish borasidagi tajribasidan mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining sifatini boshqarish mexanizmidagi ijodiy foydalanish ta'lim siyosatini isloh etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusi "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat ekanligini inobatga olganda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishdan iborat.



Tadqiqotning vazifalari sifatida hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishning dolzarb masalalarini yoritish; ta'lim sifatini baholashning xorij tajribasini o'rganish; oliy ta'lim tizimida kadrlar siyosati va strategiyasini shakllantirish omillarini ko'rib chiqish; iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'rganish; iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini baholash yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

Dissertatsiyaning tarkibi ilmiy asoslangan holda tuzilgan, mantiqan izchillikka amal qilib shakllantirilgan bo'lib, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Dissertatsiya tadqiqoti yuqorida keltirilgan va O'zbekiston sharoitida yetarlilikka o'rganilmagan jihatlariga e'tibor qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Odinayeva Nigina Furqatovnaning "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlar" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi belgilangan nizom talablariga javob beradi va magistrant **Odinayeva Nigina Furqatovna SA230102** Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha iqtisodchi magistr akademik darajasini olishga loyiq.

#### **Ilmiy rahbar**

**i.f.d.(DSc), dots. O.S.Qahhorov**

**10-ilova.**  
**Buxoro davlat universiteti** Magistratura bo'limi SA230102 – "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" mutaxassisligi 10-11QT-19 guruhi bitiruvchisi **Odinayeva Nigina Furqatovnaning** "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi yozilgan magistrlik dissertatsiyasiga berilgan tashqi **TAQRIZ**

Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy siyosatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar oliy ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Jahon amaliyotidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ulami sifat jihatidan takomillashtirish, mehnat bozori talablarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasida "ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish" dolzarb vazifa etib belgilandi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "inson kapitali" dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo yuqori daromadli mamlakatlarda 70 foiz, o'rta yuqori mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda. Oliy ta'limning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri innovasion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib bormoqda. Jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish borasidagi tajribasidan mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining sifatini boshqarish mexanizmidagi ijodiy foydalanish ta'lim siyosatini isloh etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida e'tibor qaratilgan o'ta muhim va o'ziga xos jihati - xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratib berish maqsadida: "Mamlakatimizda ilim-fanni yanada ravnaq topirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, yurimimizda 2021 yilga "Yoshlarini qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb ta'kidlashi chuqur ma'noga egadir.

Dissertatsiya mavzusi "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat ekanligini inobatga olganda o'ta dolzarb hisoblanadi.



Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi Oliy ta'lim tizimida, iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishning dolzarb masalalarini yoritish; ta'lim sifatini baholashning xorij tajribasini o'rganish; oliy ta'lim tizimida kadrlar siyosati va strategiyasini shakllantirish omillarini ko'rib chiqish; iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'rganish; iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini baholash yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

Dissertatsiyaning tarkibi ilmiy asoslangan holda tuzilgan, mantiqan izchillikka amal qilib shakllantirilgan bo'lib, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Dissertatsiya tadqiqoti yuqorida keltirilgan va O'zbekiston sharoitida yetarlicha o'rganilmagan jihatlariga e'tibor qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotning kirish qismi va unda ko'riladigan masalalar juda keng bayon etilgan bo'lib, ayniqsa mavzuning dolzarbligi, ishning ilmiy-amaliy ahamiyati tadqiqotchi tomonidan yaxshi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Oliy ta'lim tizimida sifat va samaradorlik masalasining nazariy jihatlari" deb nomlanib, unda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirishning mohiyati, tushunchasi va uning ilmiy asoslari (13-21 betlar), mutaxassislar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar siyosatining maksadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi. (21-41 betlar), bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligining xorij tajribasi va undan foydalanish yo'llari (41-61 betlar) keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning "Iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda talim sifatini rivojlantirish dinamikasi" deb nomlangan ikkinchi bobida Oliy ta'lim muassasalari rivojlanishida innovasion jarayonlardan foydalanish holati va uni mutaxassislar tayyorlash darajasiga ta'siri (61-86 betlar), Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini baholash, inson kapitali, iqtisodchi kadrlar potentsiali va uning innovasion rivojlanishdagi o'rni. (86-97 betlar). Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalari xodimlari salohiyati va bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda ular faoliyati samara dorligini oshirish. (97-112 betlar).

Dissertatsiyaning "Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish yo'llari" deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda ta'lim sifatining yuqori

darajada bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvlar, (119-143 betlar), ta'limning sifat va samaradorligini oshirish omillari (143-154 betlar). Bobning oxirgi qismida oliy ta'lim muassasalari faoliyatida sifat samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar taqdim etilgan (154-164 betlar).

Amalga oshirilgan tadqiqotning eng muhim ilmiy yangiliklari sifatida quyidagilarga erishilgan:

Talim sifatini nazariy jihatlarini kengaytirishga imkon beradigan talim sifatini taminlash va nazorat qilish mexanizmiga tashqi va ichki muhit tomonidan qo'llaniladigan talim natijalarini baholashning universal mexanizmini qo'shish taklif etiladi;

oliy ta'limda yosh mutaxassislar raqobatbardoshligini baholash omillari; iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari;

Mintaqadagi darajadagi talim samaradorligi va sifatini oshirish konsepsiyasi taklif

qilinmoqda, bu mintaqadagi universitetning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini taminlash, kadrlarga bo'lgan talabni va mintaqaviy kasb-hunar talimi tizimi tomonidan ishlab chiqariladigan taminotni muvofiqlashtirishga imkon beradi;

OTMlarini bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni hududlardagi korxonalarining mos yo'nalish(mutaxassislik)lari asosida bo'sh o'rinlarga taqsimlash modeli va "Korxonalar va tashkilotlarda ishlayotgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyoti" taklif etilgan.

Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan xulosalar va erishilgan ilmiy ishlanmalar o'zining yangiligi, mazmun-mohiyati, nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan ilmiy yangiliklar sifatida asoslanishga loyiq hisoblanadi.

Xulosa o'rinda aytish jo'zki, O'dinayeva Nigina Furqatovnaning 5A230102 Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi bajarilgan magistrlik dissertatsiyasining mazmuni, yuqori saviyada yozilganligi hamda nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, uni himoya etishga tavsiya etish mumkin, deb hisoblayman.

BuxMTI dosenti, i.f.n.

A.Ch.Boboyev



Buxoro davlat universiteti Magistratura bo'limi (14 shrift)

Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasiga har bir magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bo'yicha mutaxassislik kafedrasidan tomonidan taqdim etiladigan

**HUJJATLAR RO'YXATI**(magistrantlar hujjami tasdiqlangan holda 1 jamlanmada mutaxassislik kafedrasiga belgilangan muddatlarda topshiradi).

T/r	Hujjatlarning nomi	Asl nusxasi, sonda
1.	Dissertatsiya va uning elektron shakli	2+1
2.	Chop etilgan ilmiy ishlar ro'yxati va nusxalari	2
3.	Ilmiy rahbar xulosasi, ilmiy maslahatchi xulosasi (tegishli hollarda)	3
4.	Ichki taqriz	3
5.	Tashqi taqriz	3
6.	Dissertatsiyaning dastlabki himoyasi yuzasidan kafedra yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma	2
7.	Dissertatsiya himoyasi yuzasidan tayyorlangan ma'ruza va taqdimot	2

Buxoro davlat universiteti

magistratura bo'lim boshlig'i

A.A.To'raev